transport, sog'liqni saqlash, ta'lif, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSH dollarga teng investitsiya jalg etish.

Mazkur maqsadni amalga oshirilishida biz davlat-xususiy sherikligi asosida loyihalarni islomiy moliyalashtirishning bir nechta iqtisodiy va ijtimoiy samaralarini ochib beramiz, xususan, qo'shimcha xorijiy va ichki investitsiyalarni jalg qilish imkoniyatlari, infratuzilma loyihalarini ishonchli moliyalashtirilishi, aholini ish bilan bandligini oshirish va boshqa bir nechta takliflarni ilgari so'rganmiz. Qolaversa, so'ngi yillarda hukumat tomonidan davlat-xususiy sherikligi asosida korxonalarni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumaladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida iqtisodiyot tarmoqlarini, shuningdek, ta'lif muassasalarini tashkil etishda va rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan keng foydalanish kerakligini alohida ta'kidlab o'tdilar<sup>[1]</sup>. Ta'kidlash joizki, so'ngi yillarda O'zbekistonda maktabgacha ta'lif tizimida davlat-xususiy sheriklik amaliyotning joriy etilayotganligi, maktab ta'limi va oliy ta'lif tizimida ham bunday amaliyotning joriy etilishi mamlakatimiz ta'lif tizimi rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Shuningdek, Prezidentimiz mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik asosida madaniyat istirohat bog'larini tashkil etish, kommunal xo'jalik sohasida investorlar bilan hamkorlikda DXSH loyihalarni amalga oshirilishini ta'kidlab o'tgan edilar.

Shunday ekan, musulmon davlatlaridagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablag'larini O'zbekistonga DXSH loyihalariga jalg qilish mamlakatga xorijiy investitsiyalar oqimini oshishiga olib keladi. Bu esa O'zbekistonda DXSH loyihalarida islomiy moliyalashtirishni joriy etish imkoniyatlari yuzasidan tadqiqot olib borish va mazkur masala bo'yicha ilmiy xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish ilmiy maqolamizni dolzarbligini ko'rsatib beradi. Mazkur tadqiqot O'zbekistonda DXSH loyihalarida islomiy moliyalashtirishni tadqiq etish bo'yicha adabiyotlarni to'ldirishga yordam beribgina qolmasdan, shu bilan birlgilikda tadqiqotimiz natijalari asosida O'zbekistonda DXSH loyihalarida islomiy moliyalashtirishni amaliyotga joriy etish yo'llidagi amaliy taklif va tavsiyalar O'zbekistonda mazkur yo'nalishga javobgar vazirlik va idoralar tomonidan amaliy qo'llanma sifatida hamda huquqiy xujjatlar, davlat investitsiya dasturlari, ushbu yo'nalishni rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritasini shakllantirish va boshqalarda foydalanilishi mumkin.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

Jahon banki tomonidan olib borilgan so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'g'ri siyosat olib borilganda – past va o'rta daromadli mamlakatlar infratuzilma bilan bog'liq Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishish uchun YAIMning o'rtacha 4,5 foizini sarflashlari kerak ekan<sup>[2]</sup>.

Infratuzilmani rivojlantirish zarurati davlat siyosatining eng muhim masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, global iqtisodiyot 2030 yilgacha infratuzilma aktivlariga taxminan 90 trillion dollar sarmoya kiritishiga tayyorgarlik ko'rishi zarur ekan (Bxattacharya, Oppenheim va Stern 2015)<sup>[3]</sup>.

DXSH konsepsiysi va umumiyligi tuzilmasi birinchi bor 1990-yillarda Buyuk Britaniya hukumati tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, davlat-xususiy sheriklik (DXSH) davlat sektori uchun xaridlarning muqobil varianti va xususiy investorlar uchun qulay investitsion imkoniyat sifatida dunyo bo'ylab tan olindi (Bing va boshqalar, 2005)<sup>[4]</sup>.

DXSH Bilim labaratoriysi (PPP Knowledge Lab), (2017)<sup>[5]</sup> DXSHligini "Xususiy tomon va davlat tashkiloti o'rtaida davlat aktivi yoki xizmatlarini taqdim etish bo'yicha uzoq muddatli shartnoma sifatida belgilaydi, bunda xususiy tomon katta xavf va boshqaruv mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi, daromad yesa o'zaro ishlashga bog'liqdir" deya ta'rif bergan. Amalda esa DXSH siyosati boshqacha tarzda belgilanadi va amalga oshiriladi. Masalan, Kolumbiyaning DXSH to'g'risidagi Milliy qonunida xususiy investor barcha DXSH shartnomalari bo'yicha operatsiyalar va texnik xizmat ko'rsatish uchun javobgar bo'lishi va bu 30 yildan oshmasligi kerakligi ko'rsatilgan.

DXSH siyosatini amalga oshirish ham mamlakatlarga qarab farq qiladi. Masalan, Indoneziyada DXSH loyihalarini muvofiqlashtirish uchun mas'ul bo'lgan bir nechta institutlar mavjud bo'lib, Malayziya, Vietnam va Tailand kabi mamlakatlarda DXSH loyihalarini boshqarish uchun bir martalik xizmat sifatida maxsus bo'linma tashkil etilgan (Zen, 2018)<sup>[6]</sup>.

An'anaviy moliyalashtirish mexanizmi bilan bir qatorda, Islomiy moliya DXSH loyihalarida (ayniqsa, Turkiya va Saudiya Arabistonni kabi musulmonlar ko'p bo'lgan mamlakatlarda) muqobil moliyalashtirish sifatida foydalniladi. Loyihani moliyalashtirishda odatda istisno' va ijara (islom lizingi) qo'llaniladi.

"Islom moliya tizimi" atamasi 1980 yillarning o'rtalarida paydo bo'lganligi sababli ilmiy atamalar orasida nisbatan yangidir. Ko'pincha, bu konsepsiya foizsiz moliyaviy amaliyotlar tizimi sifatida tushuniladi. Ammo, islomiy moliya tamoyillari kredit foizlarini rad etibgina qolmasdan, bu tushunchadan anchayin kengroq hamdir.

Islom moliyasi deganda shariat tamoyillari asosida amalga oshiriladigan moliyaviy xizmat yoki mahsulot tushuniladi (Gait va Uortington, 2008)<sup>[7]</sup>. Islomda moliyalashtirish tushunchasi an'anaviy yoki "G'arb moliyasi" dan farq qiladi. Islomiy moliya tizimini an'anaviy tizimdan farqlash quyidagilarni o'z ichiga oladi (Miraxor va Iqbol, 2011)<sup>[8]</sup>:



*Birinchidan*, islom moliya tizimi tenglik, adolatli jamiyat va iqtisodiy tartib uchun intiladi. Islomiy moliya tizimida foizning (ribo) taqiqanishi, ekspluatatsiyadan qochish, narxlarni manipulyatsiya qilish orqali foyda olishdan qochish va kambag'allarni (ya'ni qarz oluvchi) himoya qilish uchun mo'ljallangan.

*Ikkinchidan*, islom moliya tizimi hamkorlik va birodarlik tamoyiliga urg'u beradi. Bu an'anaviy moliya tizimidagi tadbirkorning kreditga layoqatliligidan ko'ra biznes samaradorligini oshirishga yordam beradigan tavakalchilik, foyda va zararni taqsimlash tizimidan dalolat beradi.

*Uchinchidan*, islom moliyasi shariatning axloqiy mezonlari bilan asoslanadi.

Islomiy moliyaning aktivlarga asoslangan yondashuvi amaliyotlarda moddiy yoki nomoddiy aktivlardan foydalanishga yordam beradi, bu esa infratuzilma aktivlarini islomiy moliyalash usullari bilan moliyalashtirish uchun eng maq'bul tanlov hisoblanadi. Islomiy moliyaning asosiy tamoyillaridan biri DXSH loyihibarida xavflarni taqsimlashni nazarda tutadi. Bu kapital yetkazib beruvchilarga asosiy iqtisodiy faoliyatda ishtirot etish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish imkonini beradi. Bundan tashqari, islomiy moliya manfaatdor iqtisodiyotlarning rivojlanish maqsadlariga mos keladigan ijtimoiy infratuzilma investitsiyalarini ham rag'batlantiradi.

Mazkur maqolamizning maqsadi yuqorida keltirib o'tganimizdek, o'rganilayotgan mamlakatlarning tajribalari asosida O'zbekistonda DXSH loyihibarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish imkoniyatlari ko'rib chiqishdan iborat. Ilmiy tadqiqotimizda foydalanilgan uslub va obyekt yuqorida nomlari keltiligan olimlarning ishlarida kuzatilmasligi bilan ilmiy ishimizning farqli jihatlarini namoyon etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolamizda miqdoriy tadqiqot usulidan keng foydalanildi. Shuningdek, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tavrash, ekspert baholash, iqtisodiy statistik kabi usullardan ham samarali foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 27-avgustdagagi 371-tonli qaroriga muvofiq, 2004-yilda Islom taraqqiyot banki (IsTB) tomonidan O'zbekistonda energetika va sog'liqni saqlash sohasida davlat investitsiya loyihibarini moliyalashtirish uchun "ijara" va "murobaha" shartnomalaridan foydalanilgan.

2004-yildan bugungi kunga qadar, Islom taraqqiyot banki guruhining O'zbekiston uchun ma'qullangan loyihibar miqdori 2.5 mlrd. AQSH dollaridan ortiq bo'lib, shundan 459 million AQSH dollari XSRIK va 2,08 mlrd. AQSH dollari IsTB ulushiga to'g'ri keladi.

**1-jadval: O'zbekistonda IsTB tomonidan islomiy moliyalashtirilgan investitsion loyihibar statistikasi (30.06.2022 y. holatiga)** [9]

Nº	Sohalar nomi	Loyihalar soni	Moliyalashtirilgan loyihibar miqdori (mln AQSh doll.)
1	Transport	4	348.1
2	Moliya	54	653.5
3	Ta'lim	11	78.4
4	Qishloq xo'jaligi	9	702.4
5	Energetika	5	203.1
6	Suv, Sanitariya, shahar xizmatlari	3	93.1
7	Sog'liqni saqlash	15	413.2
8	Sanoat/Konchilik	9	59.9
9	Informatsiya va kommunikatsiya	1	0.1
10	Boshqalar	5	51.1
	Jami:	116	2.602.8

Yuqorida 1-jadval ma'lumotlaridan ham ma'lumki, O'zbekistonda islomiy moliyalashtirilgan loyihibar asosan davlat infratuzilma loyihibarini tashkil etgan bo'lib, aynisa amalga oshirilgan loyihibar samaradorligi yuqori hisoblanadi. Mazkur mavzuda ilgari surayotgan fikrimizni yanada aniqroq qilish va davlat-xususiy sherikchiligini islomiy moliyalashtirishning mazmun-mohiyati va uning ustivorligini quyidagi tahlillarimiz bilan boyitamiz. Jumladan, mazkur tadqiqotimizda O'zbekistonda davlat xususiy sherikchilik (DXSH) loyihibariga islomiy moliyalashtirish mehanizmlarini joriy etish, shu bilan birgalikda parallel va sindikatlashgan moliyalashtirishda DXSHning yirik loyihibarini an'anaviy moliyalashtirish bilan birgalikda islomiy moliyalashtirishni ham amalga oshirish taklifi bilan chiqib uni qanday amaliyotga joriy qilish bo'yicha quyidagi konseptual asosni ishlab chiqdik. Ushbu taklifimizda nafaqat DXSH loyihibarini islomiy moliyalashtirishning nazariy balki shu bilan birgalikda amaliy aspektlarini ham bir qancha grafiklar va real amalga oshirilgan loyihibar yordamida yoritib berdik.



Infratuzilmaga oid DXSH loyihalarini shariatga muvofiq moliyalashtirilishi mumkin bo'lgan mablag'ni mudoraba (kapital va mehnat sherikchiligi), vakala (agentlik) va mushoraka (sheriklik shartnomasi) yo'li bilan o'z hissasini qo'llash orqali moliyalashtirish mumkin; yoki murobaha (bo'lib to'lash), istisno' (qurilish/ishlab chiqarish/ bosqichli to'lov), salam (oldindan sotib olish/islom forvardi) va ijara (islom lizingi) orqali qarzga o'xshash moliyalashtirilishi mumkin.

Amalda, islomiy loyihalarni moliyalashtirishda eng ko'p qo'llaniladigan tuzilmalar ikkita alohida tuzilmaning bir tranzaksiyadagi birikmasi istisno'-ijara, vakala-ijara, va mushoraka-ijara hisoblanadi.

Infratuzilmaviy DXSH loyihasini shar'iy qoidalarga muvofiq tuzish asosan loyihaning o'ziga xos xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Agar loyiha "Brown field" loyihasi bo'lsa, unda loyiha kompaniyasi allaqachon aktivlarga ega bo'lishi kutilayotgan bo'ladi va odatda bunday loyihalar uchun islomiy moliya tuzilmasi istisno'-ijara kombinatsiyasi ko'rishidagi shartnomalardan foydalanadi.

Aksincha, aktivlar noldan tashkil etilishi yoki sotib olinishi kerak bo'lgan "Green field" loyihasi uchun eng mos islomiy moliya tuzilmalari istisno'ga asoslangan moliyalashtirish, istisno'-ijara, vakala-ijara asosidagi moliyalashtirish yoki mushoraka-istisno'-ijara asosidagi moliyalashtirishdan foydalaniladi. Ba'zi boshqa moliyalash tuzilmalari islomiy moliya bilan qo'llab-quvvatlanadigan DXSH amaliyotlari uchun mos keladi, masalan, murobaha, mudoraba yoki loyiha sukuki.

Islomiy moliya sheriklik tuzilmalari va risklarni taqsimlashni rag'batlantiradi, bu foya va zararni bo'lishish shaklida namoyon bo'ladi. Moliyalashtirish usullarining bu jihatlari davlat xususiy sherikchiligidagi islomiy moliyaning qo'llashni osonlashtiradi. Islom ijtimoiy infratuzilma sarmoyalarini ham qo'llab-quvvatlaydi. Demak, islomiy moliya ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni moliyalashtirish uchun ulkan salohiyatga ega hisoblanadi.

Islomiy moliyachilar moliyalashtirgan ko'plab loyihalarda an'anaviy kreditorlar ham ishtirok etishgan. Ushbu kelishuv odatda parallel moliyalashtirish yoki qo'shma moliyalashtirish deb ataladi.

An'anaviy moliyalashtirish va islomiy moliyalashtirish o'tasidagi tarkibiy va texnik farqlarni hisobga olgan holda, ikkalasi ham har xil va alohida hujjatlashtirilgan, ikkala hujjatlar to'plamiga kiritilgan shartlar va sharoitlar, har ikkala moliyachilar guruhi bir xil yoki juda o'xshash foya olishini ta'minlaydigan tarzda tuzilgan tijorat shartlaridan iborat bo'ladi.

Hujjatlar ikkala obyektning yuqori darajali bo'lishini va ikkita sindikatning proporsional va pari passu asosida xavfsizlikni bo'lishishini ta'minlaydi.

Umumiy shartlar shartnomasi va kreditorlararo shartnomadan foydalanish an'anaviy va islomiy moliya operatsiyalarida keng tarqalgan bo'lib, bunda ikki yoki undan ortiq moliyachi alohida moliyalashtirish kelishuvlari orqali moliyalashtirishni kengaytiradi.

Islomiy obyektga nisbatan taqdim etilgan xavfsizlik hujjatlari va kafolatlar odatda an'anaviy obyektniki bilan bir xil. 2-jadvalda infratuzilmaviy DXSH loyihalarida islom va an'anaviy moliyalashtirish solishtiriladi.

Keyingi muhokama infratuzilmaviy DXSH loyihalarini moliyalashtirish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladigan bir qancha islomiy moliya tuzilmalariga qaratilgan.

## 2-jadval: Infratuzilma DXSH loyihalarida islomiy va an'anaviy moliyalashtirish

Ismom obyekti		An'anaviy obyekt
SPV uchun to'lovlar bosqichi	SPV	SPV uchun to'lovlar
Oldindan ijara (Forvard ijara)		Qurilish vaqtida foizlar (%)
SPV tomonidan aktivlarni qayta sotib olish		SPV tomonidan tugatish to'lovi
Lizing ijarasi/to'lovnii kechiktirish		Amortizatsiya va foizlarni to'lash
SPV tomonidan aktivlarni qayta sotib olish		SPV tomonidan tugatish to'lovi
Islomiy obyektlar bo'yicha shartnomalar		An'anaviy obyektlar bo'yicha shartnomalar
Umumiyligi shartlar shartnomasi		
Umumiyligi xavfsizlik shartnomasi		
Umumiyligi hisob shartnomasi		

## Istisno'ga asoslangan tuzilma tavsifi (qurish/ishlab chiqarish)

### Istisno' va agentlik shartnomalari

Infratuzilmaviy DXSH loyihasini moliyalashtirishda istisno' shartnomasi qo'llanilganda, islomiy moliyachilar (sotuvchi sifatida) istisno' shartnomasi bo'yicha (1) tegishli aktivlarni ishlab chiqarish, qurish va yetkazib berishni muhandislik, ta'minot va qurilish (MTQ) yoki qurilish pudratchidan sotib oladi va (2) loyiha kompaniyasi (xaridor sifatida)ga shartnomada kelishilgan sotish narxida yetkazib beradi.



O‘z navbatida, islomiy moliyachilar loyiha kompaniyasini agentlik shartnomasiga muvofiq, MTQ yoki qurilish pudratchisi bilan MTQ yoki boshqa har qanday shakldagi qurilish shartnomasini tuzish uchun o‘zlarining agenti sifatida tayinlaydilar, bunda shartnoma shartlari istisno’ kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi.

Islomiy moliyachilar istisno’ shartnomasi bo‘yicha sotuvchi sifatida, loyiha kompaniyasini loyihani xarid qilish uchun o‘z agenti (agentlik shartnomasi bo‘yicha) etib tayinlash orqali loyiha aktivlari bilan bog‘liq qurilish, bajarish va yetkazib berish risklariga duchor bo‘lishdan qochadi.

Loyiha kompaniyasi (islom moliyachilari agenti sifatida) islom moliyachilari uchun va ularning nomidan MTQ/qurilish pudratchisidan belgilangan aktivlarni (ya‘ni loyiha aktivlarini) sotib olish va islom moliyachilariga loyiha aktivlariga egalik huquqini berish uchun MTQ/qurilish shartnoma(lar)ni tuzadi.

Islom moliyachilari agentlik shartnomasining kelishilgan to‘lov shartlariga muvofiq obyekt miqdorini to‘laysilar.


Istisno’ sotishga asoslangan vosita ekanligini hisobga olib, loyiha kompaniyasi tomonidan islom moliyachilariga to‘lashi kerak bo‘lgan istisno’ aktivlarini sotish narxi islom moliyachilari (sotuvchi sifatida) o‘rtasida istisno’ shartnomasini tuzish vaqtida kelishilishi va belgilanishi kerak. Moliyachi nuqtayi nazaridan, qat’iy belgilangan stavkali moliyalashtirish bilan cheklanish faqat istisno’ moliyalashtirishga asoslangan kelishuvlarning muhim cheklovidir.

Istisno’ aktivlari tugallangandan va yetkazib berilgandan so‘ng loyiha kompaniyasi to‘liq yoki qisman to‘lovni oldindan to‘lashni taklif qilishi mumkin. Loyiha kompaniyasi muddatidan oldin to‘lovni amalga oshirsa, islomiy moliyachilar loyiha kompaniyasiga sotish narxining istalgan qismini (cheirma sifatida) qaytarishi mumkin (lekin majburiy emas). Kelajakdagagi shartnoma bilan bog‘liq shar‘iy masalalarni va sotish bahosidagi noaniqliknini oldini olish uchun bunday chegirmalar tuzilmasligi va moliyaviy shartnomalarda hujjatlashtirilishi mumkin emas.

Loyiha kompaniyasi, agentlik shartnomasi bo‘yicha islomiy moliyachilarning agenti sifatida, istisno’ aktivlarning MTQ/qurilish shartnoma(lar)ida kelishilgan xarajatlar doirasida to‘ldirilishini va yetkazib berilishini ta’milaydi va islom moliyachilaridan istisno’ aktivlarini to‘ldirish bo‘yicha qo‘srimcha xarajatlar uchun hech qanday to‘lov talab qilinmaydi.

Istisno’ga asoslangan moliyalashtirish tuzilmasida islom moliyachilari (boshqaruvchi) va loyiha kompaniyasi (agent sifatida) o‘rtasida tuziladigan agentlik shartnomasi loyiha kompaniyasi tomonidan obyekt miqdori va qurilish davrini o‘z vaqtida to‘lash/foydalinish mexanizmini belgilaydi. Istisno’ shartnomasi loyiha kompaniyasi islom moliyachilariga sotish bahosi ko‘rinishida kelishilgan foya bilan birga obyekt miqdorini to‘lash mexanizmini taqdim etadi. 1-rasmda taklif qilingan istisno’ga asoslangan infratuzilma DXSH loyihasini moliyalashtirish tuzilmasi va tegishli bosqichlar keltirilgan.

2005-yilda Turkiya hukumati xususiy sektorning investitsiya imkoniyatlari va tajribasidan foydalanish orqali fuqarolarga izchil va sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishni ta’minalash maqsadida keng qamrovli dasturni ishga tushirdi.



1-rasm: Istisno’ asosidagi infratuzilma DXSH loyihasini moliyalashtirish tuzilmasi va bosqichlari namunasasi



## Istisno'ga asoslangan moliyalashtirish tuzilmasini amaliyotda qo'llanishi

Ushbu uzoq muddatli transformatsiya dasturi Turkiyaning sog'liqni saqlash xizmatlarini mintaqaviy sog'liqni saqlash markazi darajasiga ko'tarishga qaratilgan bo'lib, 2 milliondan ortiq xorijiy bemorlardan 20 milliard dollar daromad olishni maqsad qilgan edi.

838 o'rinci umumiylashtirish uchun Turkiyadagi Konya Integral Sog'liqni saqlash shaharchasi loyihasida istisno'ga asoslangan moliyalashtirish tuzilmasi qo'llanildi. Konya loyihasidagi tomonlar quyidagi moliyaviy hujjatlarni tuzishdi:

Loyiha kompaniyasi va islomiy moliyachi (IsTB guruhi) o'rtasida istisno' shartnomasi tuzildi, unga muvofiq islom moliyachisi (sotuvchi sifatida) aktivlarni loyiha kompaniyasiga (xaridor sifatida) yetkazib berish majburiyatini oldi, loyiha kompaniyasi tomonidan bo'lib-bo'lib to'lanishi kerak bo'lgan sotib olish majburiyati yuklandi.

Agentlik shartnomasiga muvofiq, islom moliyachisi (asosiy sifatida) loyiha kompaniyasini MTQ pudratchisi bilan MTQ shartnomasini tuzish uchun uning agenti etib tayinladi. Islom moliyachisi agentlik shartnomasi bo'yicha obyektni MTQ shartnomasida kelishilgan to'lov shartlariga muvofiq o'zlashtirdi. Loyiha bo'yicha obyekt qurib bitkazilgach, aktivlar MTQ pudratchisi tomonidan to'g'ridan to'g'ri loyiha kompaniyasiga yetkazib berildi. Aktivlarning loyiha kompaniyasiga topshirilishi bilan loyiha kompaniyasining agentlik shartnomasi bo'yicha agentlik roli tugadi va istisno' shartnomasi bo'yicha islom moliyachisi (sotuvchi sifatida) aktivlarni loyiha kompaniyasiga (xaridor) yetkazib berish majburiyati yakunlandi.

Sog'liqni saqlashni o'zgartirish bo'yicha ushbu keng ko'lamli dastur doirasida hukumat davlat-xususiy sheriklik (DXSH) modeli bo'yicha 35 ta yangi integratsiyalashgan sog'liqni saqlash shaharchalari (DXSH kasalxonalar) rejasini ishlab chiqdi, kasalxonalar sig'imlarini 40 000 dan 50 000 gacha oshirish nazarda tutildi.

Konya Karatay integral soqliqni saqlash kompus DXSH loyihasi, "green field" sog'liqni saqlash obyekti loyihalardan biri hisoblanadi. U umumiylashtirish uchun 35 ta yangi integratsiyalashgan sog'liqni saqlash shaharchalari (DXSH kasalxonalar) rejasini ishlab chiqdi, kasalxonalar sig'imlarini 40 000 dan 50 000 gacha oshirish nazarda tutildi. Aholi soni bo'yicha Turkiyaning yettinchi yirik shahri Koniya shahrida joylashgan ushbu loyiha Koniyadagi sog'liqni saqlash muassasalarida yuqori sifatli xizmatlar va rivojlanayotgan texnologiyalar bo'yicha bo'shlarni to'ldirishi hamda nafaqat ushbu shaharning o'sib borayotgan aholisiga, balki qo'shni Karaman va Aksaray shaharlari va boshqalar aholisiga ham xizmat qilishi rejallashtirilgan edi.

DXSH bo'yicha tender g'olib YEDA Insaat Sanayi ve Ticaret A.S. (YEDA Group yoki homiy) loyihami 28 yillik konsessiya muddati, jumladan, uch yarim yillik qurilish muddati ostida amalga oshirildi. Qurilishdan so'ng homiy loyihami 25 yil davomida boshqarib, Turkiya Sog'liqni saqlash vazirligiga topshiradi. Loyihaning umumiylashtirishini 354 million yevroga baholandi.

Loyiha qarz va o'z mablag'larni birlashtirish orqali amalga oshirildi. Qarzni moliyalashtirish bir guruh ko'p tomonlama rivojlanish banklari (XTB) va tijorat banklari tomonidan taqdim etilgan bo'lib, ular an'anaviy kreditorlar va islom moliyachilar, shu jumladan Islom taraqqiyot banki (IsTB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB), Qora dengiz savdosi va taraqqiyot banki (QDSTB), UniKredit va Siyemens Bank. Loyiha 2019 yilning oxirgi choragida yakunlandi.

## Istisno'-ijaraga asoslangan moliyalash tuzilmasi

Istisno'-ijara tuzilmasi ikki alohida tuzilmaning (Istisno' va ijara) bir muomalada birikishidir. Istisno' (ishlab chiqarish/qurish) shartnomasi odatda qurilish bosqichida, asosiy aktivlar sotib olinganda qo'llaniladi.

Ijara (Islom lizingi) shartnomasi aktivlar mo'ljallangan maqsadlarga tayyor bo'lganda, ekspluatatsiya bosqichi uchun tuziladi.


### Ijara (Islom lizingi)

Ijara shartnomasi odatda qurilish bosqichi va loyiha tugallangandan keyin kuchga kiradi. Ijara – islom lizing shartnomasi bo'lib, unga ko'ra ijara beruvchi mulkni sotib oladi va uni ijara oluvchiga kelishilgan ijara asosida ma'lum muddatga ijara beradi.

Lizingga olingen mulk uzufruktga ega bo'lishi kerak. Shariatga muvofiq bo'lishi uchun ijara shaffof va batafsil bo'lishi va ijaradan oldin kelishilgan shartlar bo'lishi kerak.

Ijara bo'yicha ijara beruvchi mulkning qonuniy egaligini saqlab qolishi va mulkka egalik qilish bilan bog'liq risklar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, islomiy moliyachining foyda olish qobiliyati va tavakkalchilikni o'z zimmasiga olishi o'rtaida bog'liqlik bo'lishi kerak.

Ijara va iqtina mohiyatan an'anaviy asbob-uskunalar lizingi shartnomasining islomiy ekvivalentidir. Aktivlarga egalik huquqi islomiy moliyachilarga loyiha tugallangandan so'ng istisno' shartnomasiga muvofiq beriladi. Shundan so'ng, islomiy moliyachilar uskunaning kapital qiymatini qoplash uchun tuzilgan ijara to'lovlarini evaziga loyiha kompaniyasiga aktivlarni ijara berishadi.



**2-rasm:** Istisno'-ijaraga asoslangan infratuzilma DXSH loyihasini moliyalashtirish tuzilmasi va tegishli bosqichlari

### Forvard ijara, ijara to'lovlari va bartaraf etilgan zararlar

Islomiy moliyachilar loyihaning qurilish bosqichida loyiha kompaniyasiga bosqichma-bosqich to'lovlarni amalga oshiradilar. Shariat ulamolari odatda forvard ijara shartnomasidan foydalanishga ruxsat beradilar (ijara mavsufa fi al timma deb nomlanadi), bunda avans ijara to'lovlari loyiha kompaniyasi tomonidan istisno' (yoki qurilish bosqichi) davrida to'lanadi. Ushbu avans ijara to'lovlari, odatda, qurilish vaqtidagi foyda marjasi bilan birga islam moliyachisining moliyalashtirish xarajatlарини qoplash uchun tuziladi.

Agar loyiha kompaniyasi aktivlarni yetkazib bera olmasa, islomiy moliyachilar uchun mavjud bo'lgan himoya vositalari xuddi shu ssenariyida an'anaviy banklar tayanadigan vositalar bilan bir xil bo'ladi. Islom moliyachilar loyiha kompaniyasining to'lov majburiyatlarini tezlashtirishga va istisno' shartnomasini bekor qilishga haqli. Loyer kompaniyasi odatda islomiy moliyachilarga shartnoma kuchga kirgunga qadar istisno' shartnomasi bo'yicha olgan davlat to'lovlari yig'indisini qoplashi shart va ko'pincha yuqorida aytib o'tilganidek, tugatilgan zararni to'lashi shart.

Istisno'-ijaraga asoslangan moliyalashtirish tuzilmasida, istisno' shartnomasi qurilish davrida loyiha kompaniyasi tomonidan obyektdan foydalanish mexanizmini belgilaydi, forvard ijara shartnomasi esa islam obyekti uchun to'lovlarni amalga oshirish mexanizmini ko'rsatadi.

Tavsiya etilgan istisno'-ijaraga asoslangan infratuzilma DXSH loyihasini moliyalashtirish tuzilmasi va tegishli bosqichlar 2-rasmida keltirilgan.

### Mushoraka-istisno'-ijaraga asoslangan moliyalash tuzilmasi

Mushoraka (sherikchilik) – tomonlarning kapital va faoliyatda sheriklik tamoyili asosida ishtirok etuvchi hamda foydada avvaldan kelishilgan ulushda qatnashuvchi kelishuv turi. Bunda tomonlarning foydadagi ulushi ustav kapitali(fondi)dagi ulushiga mutanosib ravishda bo'lishi shart emas. Ammo zarar ustav kapitali(fondi)dagi ulushiga mos ravishda taqsimlanadi. Investitsion loyihani amalga oshirishda tomonlarning barchasi ham, faqat bittasi ham ishtirok etishi mumkin.

Istisno' shartnomasi. Mushoraka hamkorlari (loyiha kompaniyasi va islam moliyachilari) istisno' shartnomasini tuzadilar, unga ko'ra loyiha kompaniyasi (sotuvchi sifatida) istisno' aktivlarini sotib olishga va qurilish tugallangandan so'ng mushoraka shartnomasidagi sheriklariga (xaridor sifatida) yetkazib berishga rozi bo'ladi. Mushoraka sheriklari (xaridor sifatida) MTQ shartnomasi bo'yicha kelishilgan to'lov shartlariga muvofiq loyiha kompaniyasiga (sotuvchi sifatida) tegishli mushoraka hissalarini to'lash majburiyatini oladilar.



Ijara (Forward ijara shartnomasi). Islomiy moliyachilar (lizing beruvchi sifatida) istisno' aktivlaridagi o'z ulushlarini loyiha kompaniyasiga (lizing oluvchi sifatida) forward ijara asosida ijaraga berishadi, bunda loyiha kompaniyasi davriy ijara to'lovlarini to'lashga rozi bo'ladi.

Infratuzilmaviy DXSH loyihasi kontekstida loyiha kompaniyasi va islomiy moliyachilar mushoraka shartnomasini tuzish orqali mushorakat (shartnomaviy sheriklik) tuzishlari mumkin. Mushoraka shartnomasiga ko'ra, loyiha kompaniyasi va islomiy moliyachilar mushoraka biznes rejasiga (konsessiya kelishivi yoki uning har qanday muayyan qismi) amalga oshirish uchun mushoraka kapitalining ma'lum bir kelishilgan foizini (naqd pul va yoki boshqa ko'rinishida) hissa qo'shishga va foyda (oldindan kelishilgan foiz bo'yicha) va zararni (ularning tegishli kapital hissalariga mutanosib ravishda) bo'lishishga rozi bo'ladir. Agar loyiha kompaniyasining hissasi naturadagi badallarni, shu jumladan uning konsessiya shartnomasi bo'yicha huquqlarini o'z ichiga olsa, u holda loyiha kompaniyasining natura hissasining tegishli bahosi aniqlanadi.

Loyiha kompaniyasi va islomiy moliyachilar o'tasida tashkil etiladigan mushoraka biznes rejasiga ega bo'lib, unda mushoraka kapitali qaysi faoliyatga investitsiya qilinishi va bunday investitsiyadan kutilayotgan daromad ko'rsatiladi. Konsessiya shartnomasining predmeti yoki uning har qanday alohida qismi mushoraka biznes rejasiga hisoblanadi.

Mushorakada biznes rejani amalga oshirish uchun menejer kerak bo'ladi. Mushorakani boshqarish shartnomasiga muvofiq, har ikkala mushoraka hamkorları (loyiha kompaniyasi va islomiy moliyachilar) loyiha kompaniyasini mushorakaning biznes rejasini amalga oshirish uchun mushorakaning boshqaruvchisi etib tayinlaydilar. Loyiha kompaniyasi mushorakaning boshqaruvchisi sifatida MTQ/qurilish pudratchi(lar)i va boshqa tomonlar bilan loyihani mushorakaning biznes rejasiga muvofiq yakunlash uchun MTQ/qurilish shartnomasi(lar) ini tuzadi.

Mushoraka menejeri loyihaning mushoraka biznes rejasiga muvofiq loyiha xarajatlarining taxminiy parametrlari doirasida amalga oshirilishini ta'minlaydi.

1983-yilda qurilgan lordaniyaning Amman shahridagi eng yirik aeroport va asosiy aviatsiya shlyuzu bo'lgan Qirolicha Alia xalqaro aeroportida (QAXA) imkoniyatlar va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan loyiha amalga oshirilgan. Loyiha lordaniya va Yaqin Sharqdagi birinchi muvaffaqiyatli aeroport davlat-xususiy sheriklik va lordaniyadagi xususiy sektorning bugungi kunga qadar eng yirik sarmoyasi hisoblanadi.

2007-yil noyabr oyida Airoport xalqaro guruhi (AXG) kompaniyasi hukumat bilan QAXAni kengaytirish, rekonstursiya qilish va ishlatish uchun kengaytirish va ekspluatatsiya (REO) shartnomasi sifatida ham tanilgan 25 yillik konsessiya shartnomasini tuzdi. Konsessiya shartnomasiga muvofiq, AXG 2032 yilgacha QAXAni loyihalash, ishlab chiqish, ishlatish, boshqarish, takomillashtirish va texnik xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Konsessiya loyihani sotib ol-boshqar-egalik huquqini o'tkaz (BOT) sxemasi bo'yicha amalga oshirishni ko'zda tutdi, aeroport sig'imini bosqichma-bosqich oshirishni hisobga olgan holda mavjud terminal o'rniga yangi terminal qurish va foydalanishga topshirish kerak edi (1-bosqich, 2013-yilda yakunlangan), so'ngra tegishli aeroport obyektlarini kengaytirish (2-bosqich, 2016-yilda yakunlangan)).

Ushbu DXSH loyihasi xususiy sektor tomonidan moliyalashtirilgan 1 milliard dollardan ortiq investitsiyaga olib keldi. Moliyalashtirish ikki bosqichda amalga oshirildi: dastlabki bosqich va kengaytirish. Ikkala bosqich ham parallel moliyalashtirishdan foyda ko'rdi: ya'ni islomiy moliyalashtirish (IsTB tomonidan taqdim etilgan) va an'anaviy moliyalashtirish (XMK tomonidan taqdim etilgan). DXSH kelishivi har yili 200 million dollarga baholangan davlat sektori uchun sezilarli daromad keltirdi (Jahon banki guruhi 2016-yil). Aeroportning sig'imi 2007-yildagi 4 million yo'lovchidan 2016-yilda kengaytirish bosqichi yakunlanganda 12 million yo'lovchiga oshirildi. Aeroport 2017-yilda 8 millionga yaqin yo'lovchiga xizmat ko'rsatdi, bu esa lordaniyaning uzoq muddatli trafik o'sishiga yordam berishda davom etdi va lordaniyaning mintaqaviy va global aloqalarini qo'llab-quvvatlovchi zamonaviy va samarali transport aktivini ta'minladi.

Moliyalashtirish IsTB va XMKning uzoq muddatli qarzlarini, shuningdek, AXG aksiyadorlarining o'z mablag'larini o'z ichiga oladi.


Ushbu bazaviy moliyalashtirishga qo'shimcha ravishda, homiyalar yangi terminalni qurish paytida ortiqcha xarajatlar yoki boshqa kutilmagan o'zgarishlarni qoplash uchun shartli moliyalashtirishga kelishib olganlar.

### **Islomiy moliyalash transhi**

Loyiha Yaqin Sharqdagi birinchi DXSH qo'shma transh an'anaviy krediti va islom obyekti. Islom moliyalashtirish (IsTB) jami 125 million dollarlik moliyalashtirni amalga oshirgan.

Loyihaning qurilish bosqichi IsTB va loyiha kompaniyasi o'tasidagi istisno' kelishivi bilan tartibga solingan.

Qurilish tugallangach, IsTB va loyiha kompaniyasi o'tasida ijara shartnomasi imzolandi, unga ko'ra IsTB aktivni AXGga ijaraga beradi. IsTB mudoraba bitimi orqali uchinchi tomon moliyalashtirishni safarbar qildi.



**3-rasm:** Qiroliche Alia xalqaro aeroporti loyihasi uchun islomiy moliyalashtirish transhi bo'yicha shartnoma asoslari

Islomiy va an'anaviy transhlar parallel moliyalashtirish tuzilmasi orqali birlashtirilgan bo'lsa-da, ushu loyihaning qo'shimcha e'tiborga molik xususiyati XMK B-ga o'xshab, murobaha kelishuvi orqali islomiy transh doirasida resurslarni safarbar etishni ko'rsatishdir.

Loyihani amalga oshirishning ikkala bosqichini o'z ichiga olgan loyiha xarajatlari 1 060 million dollardan ortiqni tashkil etdi (1 bosqich uchun 850 million dollar va 2 bosqich uchun 214 million dollar).

Loyiha 55:45 qulay qarz-kapital nisbati ostida moliyalashtirildi. XMK va IsTB tomonidan to'plangan qarz 473 million dollarni tashkil etdi, qolgan qismi homiyalar va aeroport faoliyatidan tushgan pul oqimlari tomonidan moliyalashtirildi.

Moliyalashtirish rejasini quyidagicha edi:

1-bosqich (2007-yil) an'anaviy moliyalashtirish ikkita yuqori darajadagi moliyalashtirishdan (jami 230 million dollarlik A-kredit va B-kredit) va ikkita subordinatsiyalangan transhdan (jami 50 million dollarlik C-kredit va Stand-bay kreditidan) iborat edi. Islomiy moliyalash parallel ravishda birgalikda moliyalash bo'yicha katta transhdan (jami 100 million dollar) iborat bo'lib, keyinchalik uchinchi tomon moliyachisi ishtiroy etishi uchun sindikatlangan.

2-bosqich (2016-yil) moliyalashtirish ikkala yetakchi moliyachilarining yuqori darajadagi transhini (jami 93 million dollar) moliyalashtirishdan iborat edi.

Loyihani amalga oshirish ehtiyojlarini qondirish uchun moliyalashtirish uzoq muddat va o'rtacha imtiyozli davrni o'z ichiga oldi hamda bozor narxlarida baholandi.

Kreditorlar tomonidan moliyalashtirish barcha konsessiya huquqlari va loyiha kompaniyasining aktivlari bilan ta'minlangan va keyinchalik kirish huquqi va hukumatning konsessiya shartnomasi bekor qilingan taqdirda barcha moliyaviy majburiyatlarni to'lash majburiyati bilan himoyalangan. 2 bosqich moliyachilariga homiylardan loyiha tugaguniga qadar qarzga xizmat ko'rsatish yoki mablag' yetishmovchiligi uchun kutish rejimida moliyalashtirishni talab qilish orqali qo'shimcha qulayliklar yaratildi. Xavfsizlik har ikki bosqich moliyachilari o'ttasida taqsimlangan pari passu asosida tuzilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borgan tadqiqotimiz natijasiga ko'ra quyidagi xulosa va takliflarni shakllantirdik:

Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) asosidagi loyihalari xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotining ko'plab tarmoqlari va sohalarida amalga oshirilmoqda. Birinchi galda bu, infratuzilma: transport, uy-joykommunal xo'jaligi, telekommunikatsiya, energetikani rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalardir.

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, moliya sektori, transport, qishloq xo'jaligi va sog'liqni saqlash soha loyihalarni moliyalashtirish eng asosiy qismini egalagan, ya'ni bu irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, yo'l qurilishi, shifohonalar qurish va ularni jihozlash va boshqa loyihalarni o'z ichiga qamrab oladi. Jadval ma'lumotlaridan yana shu ma'lumki, O'zbekistonda islomiy moliyalashtirilgan loyihalas asosan infratuzilma loyihalarni tashkil etgan bo'lib, aynisa amalga oshirilgan loyihalas samaradorligi yuqori hisoblanadi.



Islom moliya institutlarida sezilarli likvidlikni hisobga olgan holda, DXSHlarning aktivlarga bog'liqligi va uzoq muddati tabiatli ularni islom banki faoliyati uchun yaxshi investitsiya imkoniyatiga aylantiradi. Turkiyadagi Konya integratsiyalashgan sog'liqni saqlash kampusi an'anaviy va islomiy moliyalashtirish loyihalarini moliyalashtirish sifatida birgalikda ishlatalishi mumkinligini ko'rsatadi. Saudiya Arabistonidagi Madina aeroportining kengayishi esa infratuzilma loyihasini moliyalashtirishda istisno' va ijara birlashtirilishi mumkinligini ko'rsatadi. Jahon banki (2017) ma'lumotlariga ko'ra, islomiy moliyaning asosiy xususiyatlardan biri shariat tuzilmalarining mamlakat, sektor va loyihaga xos bo'lgan infratuzilma ehtiyojlarini qondirish uchun moslashuvchanligi va shu bilan islomiy moliya provayderlariga eng to'g'ri yechimni ishlab chiqish imkonini beradi. Islomiy moliya infratuzilmadagi bo'shliqni bartaraf etish uchun moliyalashtirish yetishmasligini hisobga olgan holda qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini taklif qiladi.

Jahon banki tomonidan 2019-yilda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonga tegishli bandida mamlakatda infratuzilma obyektlarining holatini yaxshilashga muhtoj aholining hududlar bo'yicha ulushi anchayin qoniqarsiz bo'lib, ayniqsa issiqlik bilan taminlaganlik Toshkent shahridan boshqa barcha hududlarda o'rtacha 90 foizlik ehtiyoj chegarasida turishi bu yo'nalishda kechiktirib bo'lmaydigan islohotlarni olib borilishi kerakligidan darak beradi. Shuningdek, asfalt yo'llari, ko'priklar, parklar va bolalar maydonchasi, internet, suv taminoti, gaz taminoti va irrigatsiya sohalarida ham loyihalar ishlab chiqilishi va bu loyihalarning moliyaviy resurslar ko'p talab qilishini taqqazo etgani uchun xalqaro moliyaviy institutlar mablag'lari (IsTB, OTB,) hamda ichki va xorijiy investsiyalarni jalg qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunda, ushbu loyihalarni DXSH loyihalari ko'rinishida bo'lishi va yuqorida ko'rib chiqanimizdek islomiy moliyalashtirish tuzilmalari (istisno', istisno'-ijara, vakala-ijara yoki mushoraka-istisno'-ijara)dan foydalanish va parallel yoki sindikatlashgan ko'rinishda ham (OTB va IsTB misol uchun) moliyalashtirish imkoniyatlarini berilishi islom iqtisodiyoti tamoyillari asosidagi xorijiy investsiyalarni kirib kelishiga va yuqoridagi hududlar kesimida moliyalashtirishga muhtoj yo'nalishlarni muammolarini hal etilishiga olib kelgan bo'lar edi. Buning isbotini nafaqat nazariy balki amaliy aspektlarini amaliyotdagi loyihalar bilan ko'rsatib berdik.

Ushbu maqolada keltirilgan xulosalar asosida qolgan masalalar bo'yicha istiqbolli ishlarimiz davom etmoqda va kelgusi maqolalarimizda taqdim etib boriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://xs.uz/uzkr/post/> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi.
2. Xayitov S.B. (2022) "O'zbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda DXSH mexanizmini takomillashtirish", 08.00.02-«Makroiqtisodiyot» Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. UDK: 330.101.541:330.35(575.1). –TDIU. 153 bet.
3. Bhattacharya, A., J. Oppenheim, and N. Stern. (2015). "Driving Sustainable Development through Better Infrastructure: Key Elements of a Transformation Program." Global Economy & Development Working Paper 91.
4. Bing, L. and et al. (2005), "The allocation of risk in PPP/PFI construction projects in the UK", International Journal of ProjectManagement, Vol. 23, No. 1, pp. 25-35.
5. PPP Knowledge Lab (2017), PPP Reference Guide – Version 3, [Online] Available from: <https://pppknowledgelab.org/guide/sections/1-introduction>
6. Zen, F. (2018), Public–Private Partnership Development in Southeast Asia. The Philipines: Asian Development Bank.
7. Gait, A. and Worthington, A. (2008). An empirical survey of individual customer, business firms and financial institution attitudes towards Islamic methods of finance, International Journal of Social Economics, 35(11), –783-808.
8. Mirakhori, A. and Iqbal, Z. (2011). An Introduction To Islamic Finance : Theory and Practice. Singapore: John Wiley & Sons.
9. Imamnazarov J.M. (2023) Islom moliya tizimi imkoniyatlaridan O'zbekiston iqtisodiyotida foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi. PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi. –TDIU.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 11-12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

